



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 28-mart

VII-9-64-5-78-K/25

Zarafshon shahar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF – 6166-son Farmoni ijrosi yuzasidan 2025-yilning yanvar-mart oylarida olib borilgan ishlar to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-fevraldagi PF – 6166-son Farmoni hamda “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 31-maydagi PQ - 5132-son qarori ijro intizomini mustahkamlashda dasturulamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

2025-yilning yanvar-mart oyida shahar hokimligiga jami 1 ming 652 ta hujjat edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kirim qilingan.

Hisobot davrida edo.ijro.uz elektron tizimi orqali kelib tushgan hujjatlarning tarkibi quyidagicha:

36 ta – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari;

25 ta – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qaror va topshiriqlari;

3 ta – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi qaror va topshiriqlari;

19 ta – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari;

45 ta – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari;

1 ta – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoyishlari;

13 ta – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchilarining topshiriqlari;

36 ta – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari;

22 ta – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlis va rayosat yig‘ilishi bayonnomalari;

178 ta – O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri va uning o‘rinbosarlari tomonidan berilgan topshiriqlar;

37 ta – Xalq deputatlari Navoiy viloyati Kengashi sessiya qarorlari va topshiriqlari;

245 ta – Navoiy viloyati hokimi va uning o‘rinbosarlari tomonidan berilgan topshiriqlar hamda chora-tadbirlar dasturi;

709 ta – Respublika va viloyat tashkilotlarining topshiriqlari;

261 ta – Respublika, viloyat telefonogrammalari va shahar hududidagi tashkilotlardan kelib tushgan xatlar.

Hisobot davrida 1 652 ta hujjat kelib tushgan bo‘lib, shundan 1 327 tasi ijroga qaratilgan.

Ijroga qaratilgan 634 ta hujjatning ijrosi ta‘minlangan, shundan 50 tasi belgilangan muddatdan kechiktirib bajarilgan, 693 ta hujjatning ijro muddati mavjud bo‘lib, ularning ijrosi ta‘minlanmoqda.

Muddati kechiktirilib bajarilgan 50 ta hujjatning– A. Shoxmirzayev (27), X. Oripov (8), S. Ebotov, S. Uvaytov (8), L. Tursunova (1), Sh. Sirojov (1), J. Shukurov (2), S. Safarov (1), G. Ro‘ziyeva (1) to‘g‘ri keladi.

Ushbu davrda shahar hokimi huzurida 46 marotaba, hokim o‘rinbosarlari huzurida esa 191 marotaba muhokamalar o‘tkazilib, tasdiqlangan yig‘ilish bayonlariga asosan mas‘ullarga ko‘rsatma va topshiriqlar berildi hamda shahar hokimi va o‘rinbosarlari tomonidan 35 ta dasturlar tasdiqlanib ijroga qaratildi.

Shuningdek, respublika hamda viloyat tashkilotlariga 658 ta aloqa xatlari yuborilgan.

2025-yilning yanvar-mart oyida shahar hokimligi, shahardagi korxonalar, tashkilotlar rahbarlari hamda boshqa mas‘ullarga ish yuritish, ijro intizomiga rioya etilmaganligi, o‘ziga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmaganligi uchun turli darajadagi intizomiy jazo choralarini qo‘llangan.

Jumladan, shahar hududidagi korxonalar va tashkilot rahbarlarining 1 nafariga, shahar hokimi yordamchilarining 1 nafariga “hayfsan” intizomiy jazosi qo‘llangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PF–6166-son Farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-son qarori ijrosini samarali tashkil etish maqsadida har haftaning juma kuni shahar hokimining birinchi o‘rinbosari huzurida, dushanba kuni shahar hokimligi apparat yig‘ilishlarida ijro intizomining ahvoli va “edo.ijro.uz” elektron tizimidagi topshiriqlarning ijrosi yuzasidan tanqidiy muhokamalar o‘tkazilib kelinmoqda.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Shahar hokimligida 2025-yilning yanvar-mart oyida ijro intizomi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar hamda “edo.ijro.uz” elektron tizimidagi Prezident hujjatlari ijrosi bo‘yicha shahar hokimligi kompleks rahbarlarining axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Muddati kechiktirilib bajarilgan 50 ta hujjat bo‘yicha mas‘ul shaxslarning javobgarligini oshirish, takroran bunday holatlarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shahar hokimligi va tegishli tashkilotlar tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilsin va amalga oshirilsin.

3. Har haftaning juma kuni shahar hokimining birinchi o‘rinbosari huzurida hamda dushanba kuni shahar hokimligi apparat yig‘ilishlarida ijro intizomi va “edo.ijro.uz” elektron tizimidagi topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarilishi bo‘yicha tanqidiy muhokamalarni davom ettirilsin.

4. 2025-yilning yanvar-mart oylarida ijro intizomiga rioya etmagan shaxslar bo‘yicha qo‘llanilgan intizomiy jazo choralarini kelgusida yanada qat‘iylashtirish bo‘yicha shahar hokimligi tomonidan qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rilsin.

5. Ijro intizomini mustahkamlash maqsadida shahar hokimligi hamda tegishli korxonalar va tashkilotlar tomonidan quyidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilsin:

“edo.ijro.uz” elektron tizimida ijro muddati tugashiga yaqinlashayotgan hujjatlar bo‘yicha mas‘ullarni oldindan ogohlantirish tizimi joriy etilsin;

barcha bo‘lim va tashkilotlarda ijro intizomi bo‘yicha ichki audit o‘tkazilsin va natijalar asosida takomillashtirish rejalari ishlab chiqilsin;

mas‘ul xodimlar uchun ijro intizomi va elektron tizimdan foydalanish bo‘yicha muntazam seminar va o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etilsin;

har oyda ijro intizomi bo‘yicha tahliliy hisobot tayyorlanib, xalq deputatlari shahar Kengashiga taqdim etilsin.

6. Xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyati (E. Davlatov) tegishli mas‘ullar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan hujjatlarning ijrosini samarali tashkil etish yuzasidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatsin.

7. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari A. Shoxmirzayev har haftaning juma kuni ijro intizomi ahvolini tanqidiy muhokama qilib borsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari va xalq deputatlari shahar Kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va xavfsizlik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (H. Ernafasov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



RAXMANOV
NAZIRBEK
ISRAILOVICH